

- ektr energiyasidan asossiz uzishga yo'l qo'ymaslik va «Iste'molchi»ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari /xtatilishi sabablarni xabar qilish;
- «Iste'molchi»ga elektr hisoblagichlarning amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq almashtirish muddatlarini xabar qilish;
 - joriy etiladigan cheklashlar haqida cheklashning joriy etilish hajmi va vaqtini ko'rsatgan holda 0,5 kun oldin xabar qilish;
 - energiya tarifi o'zgarganda o'matilgan tartibda «Iste'molchi»ga bildirish;
- 2,5 «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»ga roya qilinsin

3. ELEKTR ENERGIYASINI NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

- 3.1 Shartnomaning umumiy summasi 2999700 (ikki million tyqqiz yuz tyqson tyqqiz ming etti yuz) so'mni tashkil etadi. Elektr energiyasi tarifi bir stavkali , ikki stavkalari, tabaqalashtirilgan stavkada belgilanadi (*zarur bo'lmagan o'chiriladi*).
- 3.2 O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan elektr energiyasi uchun 50 foiz miqdorda oldindan haq avans tariqasida to'lanadi, iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qolgan summasi har oyning 28-sanasigacha to'liq to'lab beriladi.
- 3.3 Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun naqd pulsiz pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.
- 3.4 «Iste'molchi»ning aybi bilan shartnomada ko'rsatilgan xarajatlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol qilinganda to'langan avans mablag'lari kamaytiriladi, balki iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi. I-ilova
- 3.5 «Iste'molchi» har oyda bo'linish chegaralarida o'matilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarni yozib oladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida o'lehov transformatorlari koeffitsientlarini hisobga olgan holda iste'mol miqdori va foydalangan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniqlanadi. Belgilangan shakldagi hisobot «Ta'minotchi»ga har oyning 22-sanasigacha muddatda beriladi.
- 3.6 Hisob-kitob elektr hisoblagich bo'linish chegarisida o'matilmagan taqdirda elektr tarmog'ining balans bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr hisoblagich o'matilgan joygacha elektr energiyasi yo'qotilishi miqdori «Iste'molchi» bilan birlgilikda hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun «Iste'molchi» ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.
- 3.7 Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ga hisob-fakturaga yozib beradi. Har xil tarif guruhiga tegishli bir necha obyektlarga esa iste'molchilar bilan hisob-kitoblar har bir tarif guruhiga o'matilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga har bir obyekt bo'yicha bo'lib ko'rsatilgan bitta hisob-fakturna yozib beriladi. Qisman (to'liq emas) haq to'langanda «Iste'molchi» to'lov hujjatida qaysi tarif guruhlari bo'yicha to'lov berishni navbatda amalga oshirilayotganini ko'rsatishi kerak, aks holda «Ta'minotchi» tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega. Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha

Yil	yanvar	fevral	mart	apre l	may	iyun	iyul	avgus t	senty abr	oktyabr	noyab r	dekab r	jami
kVt.s.	2222	2222	2222										6666
So'm	999900	999900	999900										2999700

qaytarilmasdan avans to'lovi tariqasida hisobga olinadi.

- 3.8 «Iste'molchi» tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 50% dan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilganda elektr energiyasi har oyda yetkazib beriladi. Kichik va o'rta biznes vakillari, kichik motorli, xususiy tadbirkorlar elektr energiyasi qiymatining 100% miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilishi kerak. Yakuniy hisob-kitob esa 3-kun davomida (yakuniy hisob-kitob muddati ko'rsatilsin, lekin 30 kundan oshmasin) amalga oshiriladi. «Iste'molchi»da elektr energiyasi uchun 3 kundan ortik (muddati yuqorida ko'rsatilgan) muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganda, avans to'lovi tariqasida to'langan mablag'lari muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etishga yunaltiladi va avnas to'lov tariqasida hisobga olinmaydi. «Iste'molchi» bir necha tarif guruhga ega bo'sa, u oldindan to'lov hujjatida tarif guruhni bo'yicha elektr energiyasi summasi yoki miqdorini ko'rsatish kerak, aks holda «Ta'minotchi» tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

- 3.9 Uzi-kesil hisob-kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ga elektr enregiya berishni to'xtatadi.(shartnomaning 5.5bandida ko'rsatilgan «Iste'molchi»lar bundan mustasno) Bir vaqtning o'zida «Ta'minotchi» elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. «Ta'minotchi» buyurtmanomalarini ro'yhatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLISH TARTIBI

- 4.1.Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga olin barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.
- 4.2 Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. «Ta'minotchi» buyurtmanomalarini ro'yhatdan o'tkazish daftarini yuritadi.